



Sodirjon YAKUBOV,
"Turon" Fanlar akademiyasi akademigi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori

Pedagogika fanlari doktori, professor SH.Mardonov taqrizi asosida

AKADEMIK YOZUV VA NUTQ MADANIYATI FANLARINI OLIY O'QUV YURTLARIDA O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini oliy o'quv yurtlarida o'qitishning dolzarbligi, mazmuni hamda metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, ularning talabalarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilib, ularning afzalliklari, kamchiliklari va qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada olingan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Akademik yozuv, nutq madaniyati, oliy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, kommunikativ kompetensiya, ta'lim metodlari, ilmiy nutq, tadqiqot metodologiyasi.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИН «АКАДЕМИЧЕСКОЕ ПИСЬМО» И «КУЛЬТУРА РЕЧИ» В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальность, содержание и методические подходы к преподаванию дисциплин «Академическое письмо» и «Культура речи» в высших учебных заведениях. Также освещается значение преподавания этих дисциплин на основе современных педагогических технологий для формирования у студентов навыков письменной и устной речи. В ходе исследования изучен зарубежный и отечественный опыт, проанализированы их преимущества, недостатки и возможности применения. На основе полученных результатов в статье даны рекомендации.

Ключевые слова: Академическое письмо, культура речи, высшее образование, педагогические технологии, коммуникативная компетенция, методы обучения, научная речь, методология исследования.

CURRENT ISSUES OF TEACHING THE SUBJECTS "ACADEMIC WRITING" AND "SPEECH CULTURE" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article analyzes the relevance, content, and methodological approaches to teaching the subjects "Academic Writing" and "Speech Culture" in higher educational institutions. It also highlights the importance of teaching these subjects using modern pedagogical technologies to develop students' written and oral communication skills. The study examines both foreign and local experiences, analyzing their advantages, disadvantages, and application opportunities. Based on the results obtained, the article offers practical recommendations.

Key words: Academic writing, speech culture, higher education, pedagogical technologies, communicative competence, teaching methods, scientific speech, research methodology.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida talabalar nafaqat o'z sohasining mutaxassisi, balki savodli, mantiqiy fikrlashga, ravon va tushunarli nutq qurishga qodir bo'lishi muhim. Shu jihatdan, oliy ta'lim muassasalarida akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini o'qitish talabalarning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy faoliyatga tayyorlash hamda kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yozuv juda qadimiy hamda vaqt jihatidan chegaralanmagan. Zero, qadimgi bitiklar, buyuk allomalarimizning nodir asarlari yozuv sababli bugungacha yetib keldi. O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlilik tarixi davomida bir qancha yozuv na'munalaridan foydalangan. Miloddan oldingi asrlardan oq ajdodlarimiz o'z tarixini, badiiy va ilmiy ijodini tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda turli yozuv namunalarida bitib qoldirganlar. Markaziy osiyo eng qadimgi madaniyat va ma'rifat o'choqlaridan biridir. Bu hududda yashagan xalqlar juda qadimdan yozuv madaniyatiga ega bo'lgan. Arxeologik tekshiruvlar Xorazmda yashagan xalqlar

eramizning boshlaridayoq (III asr) ancha rivojlangan yozuv sistemasiga ega ekanligini isbotlab berdi.

Tojikiston territoriyasidagi Mug' tog'ida 1933-yilda qazish ishlari olib borilgan. U yerdan VIII asrga oid yodgorliklar topilgan. Bu yozuv yodgorliklari, keyin aniqlanishicha, qadimgi turk va qadimgi uyg'ur yozuv yodgorliklari bo'lib chiqdi. Qadimgi turk yozuvi yodgorliklari dastlab O'rxun va Enasoy daryolari bo'yidan topilganligi uchun O'rxun-Enasoy yodgorliklari deb ataldi. Keyinchalik bu yozuvlar G'arbiy Yevropaning run yozuviga o'xshaganligi uchun runik yozuv deb atalgan. XIX asr oxirlarida runik yozuvlaridan tashqari Sharqiy Turkistondan uyg'ur yozuvlari ham topilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo hududidan ham uyg'ur yozuvi namunalari topilgan.

X-XV asrda topilgan yozuvlarning asosiy qismi eski o'zbek tilida bitilgan. Ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra, arab yozuvi boshqa yozuvlarni siqib chiqara boshladi. Biroq arab yozuvi bilan birga turk xalqlari va tojiklarning yozuvlaridan ham foydalanilgan. — Oltin Yorug' yodgorligining XVII asr oxirlarida yozilganligi uyg'ur yozuvidan juda uzoq davrlar

oldin ham foydalanilganligini bildiradi. Arab yozuvi islom dini keng tarqalgan hududlarda ommalashgan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi bitiklar XI asrga taalluqli bo'lib, ularga —Qudatg'u bilik, —Devoni lug'otit turk kabilar.

O'zbek xalqi shakllangandan beri yaratilgan eng qadimgi manbalarning aksari arab alifbosida bo'lgan. Arab alifbosiga asoslangan yozuv ming yillar mobaynida qo'llanib kelingan 1930-yili esa, lotin alifbosiga almashtirildi. 1940-yilda kiril alifbosiga o'tilgan.

Ushbu maqolada ushbu fanlarni o'qitishning dolzarbligi, mazmuni va metodik asoslari atroflicha ko'rib chiqiladi. Akademik yozuvlar faktlarga asoslanadigan misollar, aniq so'z tanlash, mantiqiy tartib va shaxssiz tusga ega. Ba'zida kuchli ilmiy maqola deb qaralishiga qaramay, uo'z nomiga qarama-qarshidir. Ya'ni u ma'lumot beradi, tahlil qiladi va soddalik bilan ishontiradi va o'quvchini ilmiy muloqotda tanqidiy ravishda shug'ullanishga imkon beradi.

Akademik yozuv deganda aynan yozuvning o'zining tushinish xatodir. Bunda o'z ilmiy auditoriyasiga ega, ilmiy dalillar bilan boyitilgan, sohaviy terminlar, ilmiy hamda rasmiy jumlagar ega matn namunalari tushuniladi. Bunday matnlar shakli, mazmuni va qo'llash maqsadi doirasida turlarga bo'linadi. Xususan, rasmiylik uslubida, kanselyarizmdan foydalangan holda ma'lum ijtimoiy yoki kasbiy faoliyat doirasida qo'llanuvchi matnlar, ilmiy izlanishlar va ularning tahlili asosida ilmiy atamalar bilan kengaytirilgan matnlar va boshqalar.

Akademik yozuv ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yishda yordam beribgina qolmay, mavjud matnni imloviy savodxonlik bilan shakllantirishga, axborotlarni animatsion shaklda yetkazishga, o'rganilayotgan ilmiy matnlar doirasida yozma shaklda munosabat bildira olishga, mavjudlarini tahriray olishga o'rgatadi. Akademik yozuv mantiqiy dalilni obyektiv nuqtai nazardan yetkazishda asosiy qurol vazifasini bajaradi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda —Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida gi qonunga o'zgarishlar haqida qonunlar qabul qilindi. Qarorga binoan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 harf va 3 harfiy birikmadan iborat etib belgilandi. Yangi o'zbek alifbosida O'zbekiston arespublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida — O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi[2].

Akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarining maqsadi, vazifalari va o'qitish mazmuni yoritiladi. Boshqa tomondan, dars jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talabalarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantiruvchi usullar tahlil qilinadi. Xorijiy tajriba misolida akademik yozuvni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, onlayn platformalar, loyiha ishlari, muloqot asosidagi yondashuvlar samaradorligi ko'rib chiqiladi. Mahalliy tajribada esa milliy mentalitet va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini o'qitish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki zamonaviy kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Talabalarning o'z sohasida fikrini to'g'ri, aniq va tushunarli ifoda etishi, ilmiy matn yaratishi, taqdimot o'tkazishi kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur ko'nikmalardir. Shu bois mazkur fanlarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Mazkur masala yuzasidan Yu.K. Babanskiy, V.I. Zagvyazinskiy, V.V. Kraevskiy, I.I. Maxmutov kabi mutaxassislarning pedagogik asarlari, shuningdek, mahalliy olimlar — S. Bozorova, X.A. Valiyev, G.N. Yunusova va boshqalarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Ularning ishlari

akademik yozuv va nutq madaniyatini o'qitishda metodik asos va nazariy yondashuvlarni chuqur o'rganishga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida taqqoslash, tahlil, kuzatish, so'rovnomalar va suhbat metodlari qo'llanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy manbalarni o'rganish, amaliy dars jarayonlarini kuzatish va talaba hamda o'qituvchilardan fikr-mulohazalar yig'ish orqali amaliy materiallar to'plandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish:

Talabalarning mantiqiy va tizimli fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi;

Ilmiy matn tuzish, maqola yozish va taqdimot qilish malakasini oshiradi;

Kasbiy faoliyatda samarali muloqot olib borishga tayyorlaydi.

Shuningdek, an'anaviy metodlarni raqamli vositalar, interaktiv mashg'ulotlar va muammoli ta'lim bilan boyitish talabalarning qiziqishi va faolligini sezilarli oshirishi aniqlandi.

Ko'pgina ilmiy fanlar o'zlarining noyob xususiyatlarini qo'llashadi. Biroq, barcha akademik yozuvlar ma'lum xususiyatlarga ega. 5. Ochiq va cheklangan e'tibor. Akademik hujjatning asosiy mavzusi — argument yoki tadqiqot savolnomasi bilan belgilanadi. Qog'ozning har bir xatboshi va jumlasini shu asosiy yo'nalishga qayta bog'lanadi. Qog'ozda fon yoki kontekstli ma'lumot bo'lishi mumkin, ammo barcha tarkib tezisini qo'llab-quvvatlash maqsadiga xizmat qiladi. 6. Mantiqiy tuzilma. Barcha akademik yozuv mantiqiy, soddalar tuzilishga asoslanadi. Oddiy shaklda ilmiy maqola tanqidiy, tanqidiy maqola va xulosani o'z ichiga oladi. Kirish introduktsiya ma'lumotlari bilan ta'minlaydi, inshoning ko'lamini va yo'nalishini belgilaydi va tezisini bildiradi. Tananing paragraflari tezkor bayonnomani qo'llab-quvvatlaydi, har bir organning paragrafi bitta qo'llab-quvvatlash nuqtasini ishlab chiqadi. Asosiy fikrlarni umumlashtiradi va qog'ozning natijalarini keltirib chiqaradi. 7. Dalillarga asoslangan dalillar. Akademik yozuv yaxshi ma'lumotga asoslangan argumentlarni talab qiladi. Ma'ruzalar ilmiy manbalardan (tadqiqot maqolasi kabi) yoki asosiy matndan olingan takliflar bilan tasdiqlanishi kerak. Faktlardan foydalanish dalillarga ishonchni beradi. 8. Ma'lum bir qolipga egalik. Akademik yozuv doirasida shakllantiriladigan matnlarning o'z qolipi mavjud. Xususan, ilmiy maqola, dissertatsiya, avtoreferat, hujjat turlarining har biri o'z belgilangan qolipiga ega. Akademik yozuvning asosiy shakllariga ilmiy maqola, dissertatsiya, akademik taqriz, monografiya kabilarning matnlari kiradi. Murakkablik darajasi bilan ajralib turadigan akademik yozish darajasi mavjud. Ular:

1. Matn qismlari bilan ishlash sohasidagi asosiy ko'nikmalar;

2. Kichik qog'ozlar yozish va izohlash;

3. Yozma ish, uni tayyorlash sifatining shunday darajasiga yetadiki, uni istalgan xalqaro jurnallarda chop etish uchun ruxsat olish mumkin;

4. Nafaqat nshrni tayyorlash, balki e'lon qilingan ma'lumotlarni auditoriyaga taqdim etish shu jumladan tinglovchilar bilan o'zaro aloqa[9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini o'qitishni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, dars jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslashgan holda tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Bu yo'nalishda xorijiy tajribani tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida mazkur fanlarni o'qitishda interaktiv metodlar va raqamli resurslardan foydalanishni kengaytirish taklif etiladi. Akademik yozuv — ilmiy dalillarga asoslangan, mantiqiy va aniq tuzilishga ega bo'lgan, mavzu doirasidagi terminlar qo'llanilgan hamda o'z auditoriyasiga ega bo'lgan yozuv

na'munasi, Ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yish akademik yozuvga tayaniladi. Akademik yozuvning asosiy shakllari bo'lmish ilmiy maqola, dissertatsiya, ilmiy taqriz, monografiya kabilarning matn shakllari akademik yozuv qonuniyatlari

doirasida shakllantiriladi. Akademik yozuv ilmiy auditoriyaga qaratilganligi uchun ham rasmiy va juda shaxsiy bo'lmagan matn tarkibiga ega bo'lishi talab qilinadi. Akademik yozuvning dastlabki namunasi imlovij savodxonlikdir

ADABIYOTLAR

1. Hayot, Erik(2014). Akademik uslubning elementlari: Gumanitar fanlar uchun yozish. Kolumbiya universiteti matbuoti. ISBN 978-0-231- 537414.
2. Qanday qilib akademik uslubda yozish kerak. Demonfort universiteti. 2019.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan, 1992.
4. Mahmudov N., Mahkamov N., Madaliyev A. O'zbek tilida ish yuritish. – Toshkent:O'zbekiston, 2016.
5. Stephen Bailey. Academic Writing. –Oxon, 2015.
6. Qurbonova M, Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
7. Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2011.
8. Shermuxamedova H.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Axborottexnologiyalari. 2014
9. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/29/NamDU-ARM-15310-Akademik_yozuv_.pdf